

SHARQ MUSIQA MADANIYATINING PEDAGOGIKASI VA UNING YOSHLAR TAFAKKURIDA AKS ETISHI

*Yunus Rajabiy nomidagi O'z.MMSI
"Maqom xonandaligi" kafedrasi professori,
O'zbekiston xalq hofizi
Yuldashev Maxamadjon Usubjonovich*

Annotatsiya: *Pedagogik ilmiy asarlar qadimdan paydo bo'lgan. Forobiy, Jomiy, Xusayniy, Changiy, Ibn Sino, Kavkabi va yana ko'plab olimlar musiqa ilmi haqida risolalarni bizga yozib qoldirishgan. Bu manbalar shu bugungacha o'z qadrigimmatini yo'qotmagan holda bizlar uchun pedagogik o'quv qo'llanma vazifasini ham bajarmoqda. Ana shu metodlarni amalda asrlar davomida qo'llanilgani uchun ham bu metodik pedagogik bilimlar avloddan avlodga o'tib o'rganilishda ko'prik vazifasini bajarayapti.*

Kalit so'zlar: *Pedagogika, musiqa, madaniyat, ovoz, ritm, mahorat, bastakor, ijodkor, milliy.*

Аннотация: *Педагогические научные труды появились еще в глубокой древности. Аль-Фараби, Джами, Хусайни, Чанги, Ибн Сина, Каукаби и многие другие ученые оставили нам трактаты по науке музыки. Эти источники не утратили своей ценности и по сей день и служат для нас педагогическими пособиями. Поскольку эти методы применяются на практике на протяжении столетий, они служат мостом в передаче методических педагогических знаний из поколения в поколение.*

Ключевые слова: *Педагогика, музыка, культура, звук, ритм, мастерство, композитор, творец, национальный.*

Annotation: *pedagogical scientific works have appeared since time immemorial. Many scholars, such as Farabi, Jami, Husayni, Changiy, Ibn Sina, Kawkabi, and many others, have written many treatises on the science of music to us. These resources also serve as a pedagogical teaching aid for us, without losing their dignity to this day. Since these techniques have been used in practice for centuries, this methodological pedagogical knowledge acts as a bridge in learning from generation to generation.*

Keywords: *pedagogy, music, culture, voice, rhythm, skill, composer, creator, national.*

Kirish. Tarixdan ma'lumki, umumjahon tamaddunining tamal toshini qo'ygan ajdodlarimiz xoh adabiyot, xoh astronomiya, tibbiyot, matematika, geometriya, tarix, me'morchilik, naqqoshlik, qo'yingki, qaysi soha bilan shug'ullanmasin, albatta, biror

(3rd international scientific and practical conference)

sozni chalishni o'rgangan, kuyni ruhning ozig'i deb bilgan. Musiqa ilmi haqida fundamental ilmiy-nazariy risolalar yozishgan. Davlatimiz rahbari faollar yig'ilishida milliy madaniyatni rivojlantirish va shu asnoda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash bo'yicha nihoyatda hayotiy va dolzarb tashabbusni ilgari surdi.

Unga ko'ra, endilikda har bir umumta'lim maktabi o'quvchisining shahodatnomasiga adabiyot, ona tili, fizika, matematika va boshqa ko'plab fanlar qatorida biron musiqiy cholg'uni chalishni o'rganganligi to'g'risidagi baho ham qo'yiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Yurtboshimizning yoshlarning musiqa ijrochiligiga doir bilim hamda salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan navbatdagi tashabbusi zamirida ham, shubhasiz, chuqur o'ylangan maqsad va mazmun yotibdi. Bu borada fikr yuritganda hayolimizda xalqimiz azaldan e'zozlab keladigan qadriyatlar, orzu-umidlar jonlanadi. Ushbu yorug' niyatlarning eng qadrlisi, albatta, barkamol avlod tarbiyasi bilan bog'liq. Insonning jismonan baquvvat, aqlan yetuk va ma'nau komillikka yetishuvi barkamollikdan nishona.

To'g'ri, har jihatdan tugallikka hech bir odam farzandi hali yetganmas. Lekin ko'ngilda umid va ishonch uyg'otadigani shuki, inson mudom ana shu saodat sari intilishda, izlanishda, harakatda. Bugungi kunda musiqiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyati uchun ijodkorlar ya'ni bastakorlar, cholg'uchilar, shoirlar, ijrochilar va tinglovchilar ham mas'uliyatni his etishlari zarur. Ma'lum vaqt davomida yashab so'ng unitiladigan sayoz asarlardan voz kechishimiz jamiyat uchun ham foydali deb o'ylayman. Chunki musiqa shunchaki ohanglarning ritmik moslashishi, tushinarsiz tovushlar yoki qofiyasi mos kelgan ma'nosiz she'rning qo'shiq qilinishi emas. Har qaysi ijodiy ishlardan ko'zlangan ijobiy natija bo'lishi kerak. Masalan qaysidir ijtimoiy holatni ifodalash yoki ota-onaga, Vatanga muhabbat ruhini singdirish, do'stlik va mehr-oqibat tushunchalarini targ'ib etish uchun xizmat qilishi kerak. Insoniylik, insof, manfaat, kibr kabi ijobiy va salbiy tushunchalarning to'g'ri talqin etilishida qo'shiqlar va musiqiy asarlarning o'rni kattadir. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda.

Yangi O'zbekistonda musiqa san'atini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar hech qachon to'xtab qolmaydi. Qolaversa, yanada rivojlantirilib, o'zbek musiqasi dunyo sahnalarini ko'rishda davom etadi albatta.

Tadqiqot metodlari va uslublari. Mutaxassis o'qituvchi faqat professional, yetuk musiqa fani o'qituvchisi emas, balki jamiyatning badiiy didini, ilg'or musiqa san'atini ommalashtira oladigan faol madaniyat arbobi etib tayyorlaydi. Shuningdek, musiqiy ta'lim yo'nalishi talabalarni musiqa madaniyati fani o'qituvchisi amaliy faoliyatiga ham tayyorlaydi.

Musiqa sohasining pedagogik faoliyatiga to'xtalar ekanmiz, avvalo bu atama haqida tushuncha xosil qilish lozim. Musiqa ta'limi va tarbiyasi haqidagi bu fan tarixi

(3rd international scientific and practical conference)

yer kurrasida insonning paydo bo'lishi, pedagogikaning shakllanishi, musiqa madaniyatining insoniy turmush tarzi sifatida vujudga kelishi bilan bog'liq qadimiy davrlar bilan bog'liq va hozirgi kungacha davom etmoqda.

Tashabbus ko'rsatib mehnat qilish hamda yuqori professionalizm musiqa pedagogikasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Musiqa madaniyatining rivojlanishi, insonning musiqa olamiga qo'ygan ilk qadamlari, barkamol shaxs bo'lishida uning musiqiy iqtidorini takomillashtirish aynan o'zining maktabini, ijrochilik uslubini, rang-jilosini yarata olgan o'z ishiga sodiq musiqiy pedagoglardir deya olamiz.

Musiqiy ta'lim darajasi esa, doimo o'qituvchining pedagogik malakasi sifatiga bevosita bog'liq. Yaxshi o'qituvchi nafaqat pedagogik iste'dodga ega bo'lishi va musiqiy asarni ijro etish texnikasini egalashi, balki mavjud pedagogik nazariyalar va o'qitish metodlari bo'yicha tegishli hajmdagi bilimga ega bo'lishi lozim ekan. Mashhur kompozitor I.Gofman: "o'quvchi har bir notani, sekvensiyasi, ritmni, garmoniyani va notada mavjud bo'lgan barcha ko'rsatmalarni anglab olmagunicha cholg'usiga yaqinlashishga oshiqmasligi, o'zi uchun yaxshi ish bo'lar edi, chunki chalish-ijrochi juda yaxshi bilgan narsaning qo'llar yordamida ifodalanishidir" deydi. Musiqiy xotira, tafakkur, tasavvur, eshitish, ovoz, ritm, ijro texnikasini o'rgatish va rivojlantirish musiqa pedagogikasi nigohidagi yana ko'plab misollar keltirish mumkin.

Xulosa. Yuksak pedagogik mahorat egasi, hozirgi kunda kafedramizda ana shu ustozlarning yaratgan asarlariyu, qilgan sa'y harakatlari tufayli talabalarning ijro qiladgan dasturlarining boy ekanligini ta'kidlamaslikning iloji yo'q albatta. Bulardan: Hoji Abdulaziz Rasulov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Abdusolat Vahobov, Domla Halim Ibodov va ularning shogirdi Yunus Rajabiy. Bu va yana ko'plab nomlari zikr qilinmagan ustozlar tomonidan yaratilgan maktab va uning noyob ijodiy faoliyati o'zbek milliy musiqa san'ati rivojida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Sh.Mirziyoyev "Qarorlar Konsepsiyasi" internet sahifasi.
2. O'zbekiston milliy entiklopediyasi I-jild. Toshkent-2000.
3. "Yoshlik qo'shig'I" G'ulom Qo'chqorov Toshkent- 1986.
4. "Maktab repertuari" A.A.Yuldashev Farg'ona-2020.
5. "Maktab repertuari" O.K.Mamirova Farg'ona- 2020.
6. "Musiqa pedagogikasi" Rauf Qodirov Toshkent-2018.